

## TYUTORLARNING YOSHLAR BILIMI VA MA'NAVIYATINI OSHIRISHDAGI ROLI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti tyutori  
Turakulova Ra'no Sharafiddinovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tyutorlik faoliyati, tyutorlik vazifalari, talabalarga ko'rsatilayotgan yordamlar, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, o'quv va psixologik yo'naliishidagi vazifalar yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье описаны репетиторская деятельность, репетиторские задачи, помощь, оказываемая студентам, духовно-просветительские, научные, воспитательные и психологические задачи.

**Abstract:** This article covers tutoring activities, tutoring duties, assistance provided to students, and spiritual-educational, scientific, educational, and psychological tasks.

**Kalit so'zlar:** tyutor, ma'naviyat, pedagogik-psixologik vazifalar, tyutorlik nizomi, psixologik yordam, to'garaklar, sport, san'at, kitobxonlik.

**Ключевые слова:** тьютор, духовность, педагогико-психологические задачи, регламент репетиторства, психологическое сопровождение, кружки, спорт, искусство, чтение.

**Keywords:** tutor, spirituality, pedagogical and psychological tasks, tutoring regulations, psychological support, clubs, sports, art, reading.

**Kirish.** Har bir oliy ta'lif muassasasi talabalarning bilim olishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Talabaga ta'lif berish bilan birga, darsdan bo'sh vaqtida nimalar bilan bandligi, qanday muhitda yashashi, uning fanlardan tashqari qiziqishlari —hammasi oliy o'quv yurti uchun muhim. Talabalarning dars vaqtida ham davomati, darsga qatnashayotganligi, o'zlashtirishi, fanlarga qiziqishlari, darsdan keyingi vaqtini nimalarga sarflayotganligi, turli xil to'garaklarga jalb etish, sport musobaqalariga, tasviriy san'at, kitobxonlik tanlovlariiga jalb etish kabi vazifalarni tyutorlik qamrab oladi. Talabaning o'qish davridagi g'amxo'ri desak adashmaymiz, ota-onasidek jonkuyar murabbiysi bu tyutor hisoblanadi. Tyutorlar ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy-tarbiya, o'quv va o'quv-uslubiy hamda ilm-fan, innovatsion va ilmiy-tadqiqot yo'naliishlarida o'z faoliyatini olib boradi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Agar kimdir, ma'naviyat masalasi – bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, xato qiladi. Bularning barchasi oldimizda turgan eng asosiy, eng muhim vazifalardan biridir".<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Vedioselektor. 19.01.2021

Har bir tyutor o‘ziga biriktirilgan guruh talabalarini besh muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan klub va to‘garaklarga jalg etib boradi hamda ularning ijodiy qobiliyati va iste’dodini namoyon etishi uchun imkon yaratadi. Talabalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiladi, ularning ta’lim olishi, ilm bilan shug‘ullanishi, yashashi va dam olishi uchun sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi va bu boradagi yangiliklardan xabardor qilib boradi.

Shuningdek, yigit-qizlarning o‘quv intizomini mustahkamlash, ularda ijodiy fikrlash, halollik, to‘g‘ri so‘zlik kabi xislatlarni shakllantirish borasida tizimli ishlarni yo‘lga qo‘yadi. Iqtidorli va iste’dodli talabalarni aniqlab, ularning turli tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga hamda talabalarning loyiha va startaplarini amalga oshirishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari, talabalarning darslarni o‘zlashtirish darajasini nazorat qilib boradi, ularning innovatsion ta’lim texnologiyalari va o‘quv-uslubiy materiallar, axborot-resurslari bilan ta’minalash va ushbu manbalardan keng va unumli foydalanishi uchun zamin yaratadi.

Shu bilan birga tyutorlar talabalarni o‘ylantiradigan qator masalalar, xususan, talabalarni turar joy bilan ta’minalash, qoldirilgan darslarni o‘zlashtirishiga yordam berib boradi.

Respublika davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik tizimi joriy qilinganiga ko‘p bo‘lmadi. Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hamda shu assosida qabul qilingan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi buyrug‘i va Nizomi yangicha tizimga asos bo‘lgan edi. Bugun bir qancha OTMlar qatori Shahrisabz davlat pedagogika institutida ham tyutorlar ish olib bormoqda. Ayni kunda ularning soni 28 nafarga yetdi. Hozirgi globallashuv sharoitida barcha sohalarning tayanchi, fundamenti —ta’limga borib taqaladi. Chunki aynan ta’lim dargohlaridan jamiyat uchun kerakli va uni boshqaradigan yetuk mutaxassislar yetishib chiqmoqda. Shu jihatdan, zamon talablariga mos, irodali, har tomonlama mulohazali, manfaatlari bunyodkorlik g‘oyasiga qaratilgan yosh kadrlarni tarbiyalash bugungi kun ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi. Tyutorlik tizimi ham ana shu maqsadlarga yo‘naltirilgan. U oliy ta’lim muassasasida tarbiya jarayonini tizimli va samarali amalga oshirishning muhim shakli va vositasidir. Tyutor esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, ta’lim muassasasi, respublika va xalqaro miqyosdagi tanlov va olimpiadalarda munosib ishtirok etishiga, shuningdek, ularning bo‘sh vaqlarini mazmunli o‘tkazishiga ko‘maklashuvchi pedagog bo‘lib, u yigit-qizlarni kasbga yo‘naltirish, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, turli ilmiy to‘garaklarga jalg etish hamda muammo va kamchiliklarini o‘rganib, ularga atroflicha echim topish bilan shug‘ullanadi. Har qanday yangilik kabi bu

yo‘nalishning ham kelib chiqish tarixi bor. Ko‘p manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo‘lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o‘qituvchisi, o‘qituvchi, murabbiy, vasiy” degan ma’nolarni anglatadi. “Tyutorlik” so‘zi insonning shaxsiy ta’limini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir.

Qolaversa, tyutor talabalar bilan individual ish olib borish bilan birlashtirilgan portretini shakillantirib uni qiziqishlariga mos yo‘nalishlarga yo‘naltirishi ham lozim. Ayniqsa talabalar o‘rtasida o‘tkaziladigan turli xil tanlovlardan musobaqalar yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlariga yangi qirralarning ochilishiga turtki bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Shavkat Mirziyoyev. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Vedioselektor. 19.01.2021
2. <http://manaviyat.tstu.uz/wp-content/uploads/2021/10/Tyutorlik-faoliyatini-tashkil-etish-boyicha-Nizom.pdf>